

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Mirzayev Mutalib Jurayevich,

*Termiz davlat universiteti, Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası
mudiri. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Annotatsiyasi.** Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi nazariy asoslarini, bo'lajak bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning noan'anaviy texnologiyalarini ishlab chiqish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasining didaktik ta'minoti kabi masalalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kompetensiya, kompetentlik, faoliyat, shart –sharoit, tajriba, moderinizatsiya, tizim, kreativ, texnologiya, kognitiv, yondashuv, kasbiy faoliyat, rivojlantirish.*


Kirish. Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyillik tuyg'ularini kamol toptirish kabi ulkan vazifalar qo'yilgan.

O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli taxlil kilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni

shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi¹. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir kancha vazifalar bergilab berganlar Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. 2022-2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida alohida to'xtalib o'tganlar"². Shu bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlarda xam demokratik tamoyillar asosidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oliy ta'lim tizimida talabalarning mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini yanada rivojlantirish.

Asosiy qism. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish xar bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim kontekstida ko'p bosqichli uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan samarali innovasion modellarni yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kasb ta'limi pedagoglari faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning o'z

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi-O'zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847 sonli farmoni.Lex.uz



faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni bo'lajak kasbiy faoliyatida izchil qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishini talab etadi.

Zamonaviy jamiyatda u yoki boshqa mamlakatlarning rivojlanish darajasini nafaqat uning texnik xolati, balki oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislar kasbiy kompetentligini xam belgilaydi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kasb ta'limi tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriyat tug'diradi. Hozirgi vaqtda oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlari joriy etilib, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim mazmuni va texnologiyasida innovasiyalar keng joriy etilmoqda.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatadi. "Kompetentlik" tushunchasi noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan xollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kompetentlik deganda, ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligidan oyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va kunikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular mutaxassis bilimlarining amaliy faoliyatga yo'naltirilganligi, muammolarni oldindan ko'ra bilish, nostandart kasbiy vaziyatlar va murakkab vazifalarni hal etishdagi tezkorlik, natijadorlikni

namoyon qila olishi, mehnat sharoitining talablariga moslashuvchanlik va ijodiy fikrlash ko'nikmalariga egalik kabi sifatlarni o'zichiga oladi.

Yosh avlod tarbiyasida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish orqali inson hayotga, shaxs tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatishi mumkin. Darhaqiqat, shaxs va jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omillardan biri bu ijod sanaladi. Shaxsning ijodiy tafakkuri o'z navbatida o'ziga xos yangi g'oyalar, kashfiyot va ixtirolar, bilimlarni kengaytirish, fan-texnikani rivojlantirishga xizmat qiluvchi kasbiy-innovasion tadqiqotlarning asosi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasi pedagog kadrlarining tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishning metodologik asoslarini tahlil etar ekanmiz, bu borada xam turli o'ziga xos qarashlar va kontseptsiyalar shakllanganligini ko'rishimiz mumkin buladi. Masalan, I.A.Zimnyaya tadqiqotchilik kompetentligini inson faoliyati uchun zarur bo'lgan tayanch kompetentsiyalar tarkibiga kiritsa, T.A.Voronova esa tadqiqotchilik kompetentligi pedagoglardagi nazariy bilimlarni amaliyotda qayta ishlash extiyojining mavjudligi, pedagogik tadqiqot metodlarini egallaganlik, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, ulardan foydalana olish va xulosalarni shakllantirish bilan bog'liq ko'nikmalar yig'indisi sifatida izohlaydi A.V.Xutorskiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shaxs qadriyatlar tizimi (aksiologiya) va ichki motivatsiyasi bilan bog'lik holda yoritadi, V.V.Dumin tadqiqotchilik kompetentligi pedagogning ilmiy faoliyatidagi yuqori natijadorligi, uning ilmiy tafakkur uslubi, ehtiyojlari va qobiliyatlari, o'z qarashlarini olg'a surish, innovasiyalarga nisbatan xayrixoxligi bilan bog'laydi, Sh.S.Sharipovning ilmiy izlanishlarida esa tadqiqotchilik, ixtirochilik tushunchalari mutaxassisning bilish saviyasini oshiruvchi va mustahkamlovchi, faol va mustaqil fikrlash xislatlari, ma'naviy ma'rifiy

saviyasini sezilarli darajada o'sishiga olib keluvchi jarayon ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Adabiyotlar tahlilida pedagog kadrlarning tadqiqotchilik kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari sifatida motivatsion, kognitiv va texnologik jihatlari ko'rsatiladi. Bunda motivatsion jihat - tadqiqotchilik kompetentligining kasbiy faoliyatdagi o'ziga xosligi va muhimligining namoyon bo'lishi, kognitiv jihatini ilmiy ma'lumotlarni o'rganish va tadqiqotchilik vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish hamda uning natijalarini kasbiy faoliyatiga tatbik etish, texnologik jihatini esa qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida izohlanadi. Shu bilan birga pedagogning tadqiqotchilik kompetentligi uning fikrlash jarayonlari va tadqiqotchilik faolligi, muammolarni ko'ra bilish va ajrata olish, vazifalarni qo'ya olish, muammo yechimiga qaratilgan farazlarni shakllantirish va yechimlarni asoslay olishi, empirik ta'lim metodlarini qo'llay olishida o'z aksini topadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, innovasiyalarga nisbatan ochiqlik, analitik tafakkur, ijodkorlik va tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanishga tayyorgarlik darajasi, shuningdek shaxsiy sifatleri yig'indisidir. Tadqiqotchilik kompetensiyalari esa o'z navbatida fanning zamonaviy tendentsiyalari va ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish negizida mutaxassisning har tomonlama kasbiy rivojlanishi, o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bugungi ta'limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kompetensiyasini rivojlantirish va bu jarayonda quydagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetentsiyalar va ko'nikmalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida sifatga urg'u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish;

- hamkorlikdagi ta'lim, loyihaviy va muammoli ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan "tadqiqotlar orqali ta'lim" kontseptsiyasini amaliyotga keng joriy etish;

- ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;

- pedagoglarning innovasion g'oyalarni ishlab chiqish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllantirish uchun quyidagi bir qancha kompetensiyalarni hisobga olish lozim:

1. Aksiologik kompetensiya (rivojlanish va takomillashuv) – shaxs qadriyatlarini, individligi, kasbiy pedagogik faoliyat maqsadlarini chuqur anglashi, kasbiy etik madaniyatga ega bo'lishi, o'z kasbini yashashdan maqsadi deb bilishi, talabalarni o'qitish jarayonlarini ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni kashf etish deya bilishi, pedagogik fanlarning insopparvarlik funksiyalarini chuqur idrok qilishi.

2. Ijtimoiy-huquqiy kompetensiya ta'lim jarayonining me'yoriy huquqiy asoslari, xususan, uni modernizatsiyalash borasidagi hujjatlar yuzasidan bilimlar, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari hamda me'yorlariga amal qilish, bolalar va o'smirlarni ijtimoiy yomon illatlardan muhofaza qilishni bilish, ta'lim jarayonida talabalarning hayoti va salomatligini asrashni bilish,

oliy ta'lim muassasasi va auditoriya hujjatlarini yuritish ko'nikmasiga ega bo'lish demakdir.

3.Ma'lumotlilik kompetensiyasi – kasbiy faoliyati bo'yicha belgilangan vazifalarni yechish uchun umumiy va maxsus nazariy fan asoslarini to'laligicha bilish, pedagogik fanlar va ta'lim tarqqiyotining asosiy yo'nalishlari haqida bilimga ega bo'lish, axborot texnologiyalarining turli manbalari bilan ishlashni bilish (bosma, elektron, internet) ma'lumotlardan maqsadga muvofiq samarali foydalanishni bilish ko'nikmasidir.

5.Metodik-texnologik kompetensiya – kasbiy faoliyatni chuqur anglash va uning ijodiy tabiatini ro'yobga chiqarish. O'z malakasini takomillashtirish uchun bilimlarini oshirib borishga tayyorligi, oliy ta'lim darsliklari va dasturlari borasidagi bilimlari, ular yordamida yillik mavzularga oid rejalar ishlab chiqishni bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'zi o'qiyotgan fan, soha talablaridan kelib chiqqan holda darsda va darsdan tashqarida faoliyat olib borishi, turli-tuman metodlar, usullar va o'quv jihozlari (kompyuter va boshqalar)dan foydalanishni bilishi, ta'limga shaxsiy yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan yondoshuv, mazmun-mohiyatini yaxshi tushunishi, guruh rahbari vazifasini bajara olishga tayyorgarligi, bunda shaxs madaniyatining barcha yo'nalishlari bilan bog'liq barcha vazifalarni yecha bilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, belgilangan maqsad va vazifalarni yechishga mos tarzda qo'llay bilishi, talabalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun tarbiyaviy va yo'l-yo'riq ko'rsatish ishlari orqali turli ijtimoiy tabaqalar bilan hamkorlikda (talabalar jamoasi, oila, qo'shimcha ta'lim tizimi, madaniy-ma'rifiy ishlar) ta'sir ko'rsata olishidan iborat.

6.Kommunikativ kompetensiya. Hamkorlikda ta'lim faoliyatini tashkil etishni bilishi, bag'rikenglik bilan ishyuritishi, ziddiyatli vaziyatlarda o'zini munosib tuta bilishi, guruh jamoasini demokratik boshqarish va o'z-o'zini boshqarish faoliyatida

ishtirok etishi, talabalar ijtimoiy faoliyati uchun ko'maklashishi, o'zining ilmiy metodik faoliyati natijalarini taqdim etishni bilishi va boshqalar.

7.Tahliliy nazorat kompetensiyasi. Pedagogik jarayonlar ning bir butunligini ta'minlovchi, psixologik mexanizmlarni tahlil qila olishi, o'quv tarbiyaviy

jarayonlarning barcha bosqichlarida hushyorlik bilan faoliyat ko'rsata olishi, ta'lim natijalarini baholashning an'anaviy va zamonaviy vositalarini (test, reyting, portfolio) bilishi, shaxs, talaba va guruh jamoasini o'rganish va bashorat qilishni turli pedagogik-psixologik usullariga ega bo'lishidan iborat.

8.Loyiha tadqiqotchilik kompetensiyasi. O'zining kasbiy faoliyatidan qoniqmaslik va shu asnoda uni yangilash, takomillashtirishni bilishi, ta'lim jarayonlari qatnashchilari bilan barcha tashkiliy ishlarning mazmun-mohiyati va metodlari borasida o'zaro hamkorlik qilishi, o'quv- dasturiy hujjatlarni tayyorlash asoslarini bilishi va ulardan ta'lim mazmundorligini ro'yobga chiqarishda foydalanishi, bolalar va o'smirlarning ijtimoiy jihatdan moslasha olmayotganligini bilishi va bunday holatlarning oldini olishi, psixologik-pedagogik tadqiqotlar loyihasini ishlab chiqishni bilishi kabilardan iborat.

Bo'lajak pedagog ham shaxsiy, kasbiy hamda maxsus kompetensiyalarga ega bo'lmog'i lozim.

Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning ta'lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy kompetensiya - o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zini o'zi anglash asosidir.

Shaxsiy fazilatlarga ya'ni shaxsiy kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

- talabchanlik
- adolatlilik
- bag'rikenglik
- halollik
- yetakchilik

- xayrixohlik
- insonparvarlik
- kirishimlilik
- mehribonlik va hokazo

Kasbiy kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikmalar majmuyidir.

Kasbiy kompetensiya:

- o'z sohasini mukammal bilish
- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish
- o'z ustida ishlash
- ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash
- ta'limiy muhitni yarata olish
- ehtiyojini anglay olishi
- ta'limda yangicha yondashuv
- zamonaviy pedagogik texnologilardan o'rinli foydalanish
- persektiv qobiliyatga ega bo'lish va hokazolar

Maxsus kompetensiya:

- talabalar ehtiyojini bilishi
- turli yosh xususiyatlarini bilishi
- ta'limni tabaqalashtirish
- ta'limni individuallashtirish

Kompetensiya har qanday sohada puxta bilimni anglatadi. Kompetentlik esa -biron bir ishni samarali qila olish qobiliyatidir. Kasbiy kompetentlik bu - pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi tizimi pedagogning mahoratida ko'zga tashlanadi. Biz yuqorida keltirgano'qituvchiningkompetensiya modeliniuning kasbiy tayyorgarligi

modeli desak xato qilmaymiz. Kasbiy kompetensiyaning eng muhim qirralaridan biri o'qituvchi-pedagogning nazariy tayyorgarligi masalasi. Bo'lajak o'qituvchining asosiy malakaviy xususiyati imkon beruvchi pedagogik aks ettirishning shakllanish darajasi bo'lajak o'qituvchi shaxsida, bo'lajak o'qituvchilar guruhlarida, o'zlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni yetarli darajada baholash kasbiy faoliyat, o'zida professional sifatida aks ettira olishi mumkin. Pedagogik aks ettirish tizimli yaxlitlikni amalga oshirishga imkon beradi pedagogik faoliyatni tartibga solish, binobarin, innovasion, ijodiy vositalarni o'zlashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki pedagogning pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhim sanaladi. Pedagog yosh avlodni tarbiyalashda malakali, mahoratli bo'lishi lozim. Ta'lim jarayoning muvofaqiyatli kechishi uchun pedagog beradigan ma'lumoti haqida chuqur bilimga ega bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli va maqsadli foydalana olishi, sifat va samaradorlikka katta e'tibor qaratmog'i lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni aniq bir maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish bugungi kun pedagogining oldiga vazifa qilib qo'yildi. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy ta'lim har tomonlama rivojlangan barkamol insonni shakllantirishni va sog'lom mafkurali, yurt ravnaqi yo'lida mustahkam irodali, raqobatbardosh, maqsadli yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi-O'zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847 sonli farmoni. Lex.uz

2. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovasion ta'lim muhitini yaratish. Integration of sciencye, education and practicye. sciyyentific-methodical journal, 1(02), 132-137
3. Татур Ю. Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004
4. Рустамов Л.Х. Узлуксиз педагогик амалиётни ташкил этиш технологияси: Методик қўлланма. ТДПУ. Тошкент – 2013. 12-14
5. Jalolov A. // Kasb qanday tanlanadi // . - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 62 b.
6. Аулова Н.С. Формирование готовности будущих менеджеров к профессиональной деятельности в современных социально экономических условиях: дис.. канд. пед. наук. - Барнаул. 2005. - 227 с.